



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 226 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	



TURLI YOSH DAVRLARIDA PERFEKTSIONIZM VA MAQULLANISH MOTIVATSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI O'RGANISH

Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna

Renessans ta'lim universiteti

Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada mukammallikka intilish darajasi hamda ma'qullanish motivatsiyasi, ya'ni shaxsning boshqalar tomonidan e'tirof etilishi va ijobiy baholanishiga bo'lgan ehtiyoji o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik 1052 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan. Pirson korrelyatsiya tahlili natijalariga ko'ra, mazkur ikki o'zgaruvchi o'rtasida statistik jihatdan ishonchli, kuchsiz musbat bog'liqlik aniqlangan ($r = 0,237$; $p < 0,001$). Ushbu natija mukammallikka intilish darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda boshqalarning ma'qullashi va ijtimoiy tasdig'iga bo'lgan ehtiyoj ham nisbatan yuqoriroq namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2 = 5,6\%$) ma'qullanish motivatsiyasi variatsiyasining faqat kichik qismi mukammallikka intilish darajasi bilan izohlanishini bildiradi. Olingan natijalar ijtimoiy taqozo etilgan perfektsionizm nazariyasi nuqtayi nazaridan talqin qilinib, psixologik amaliyot uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mukammallikka intilish, ma'qullanish motivatsiyasi, tashqi tasdiqqa ehtiyoj, ijtimoiy taqozo etilgan perfektsionizm, Pirson korrelyatsiyasi, korrelyatsion tahlil, empirik tadqiqot, psixologik tadqiqot.

Abstract: This article examines the relationship between the level of striving for perfection and approval motivation, defined as an individual's need for recognition and positive evaluation from others, based on the findings of an empirical study involving 1,052 respondents. Pearson's correlation analysis revealed a statistically significant but weak positive relationship between the two variables ($r = 0.237$; $p < 0.001$). The findings indicate that individuals with higher levels of striving for perfection tend to exhibit a greater need for social approval and external validation. The coefficient of determination ($R^2 = 5.6\%$) suggests that only a small proportion of the variance in approval motivation is explained by striving for perfection. The results are interpreted within the framework of the theory of socially prescribed perfectionism and are accompanied by practical recommendations for psychological assessment and intervention.

Key words: striving for perfection, approval motivation, need for external validation, socially prescribed perfectionism, Pearson correlation, correlation analysis, empirical research, psychological research.

Аннотация: В статье на основе результатов эмпирического исследования с участием 1052 респондентов анализируется взаимосвязь между уровнем стремления к совершенству и мотивацией одобрения, понимаемой как потребность личности в признании и положительной оценке со стороны окружающих. По результатам корреляционного анализа Пирсона установлена статистически значимая слабая положительная связь между исследуемыми переменными ($r = 0,237$; $p < 0,001$). Полученные данные свидетельствуют о том, что лица с более высоким уровнем стремления к совершенству в большей степени испытывают потребность в социальном одобрении и внешнем подтверждении. Коэффициент детерминации ($R^2 = 5,6\%$) показывает, что лишь небольшая часть вариативности мотивации одобрения объясняется стремлением к совершенству. Результаты исследования интерпретируются в контексте теории социально предписанного перфекционизма и сопровождаются практическими рекомендациями для психологической практики.

Ключевые слова: стремление к совершенству, мотивация одобрения, потребность во внешнем одобрении, социально предписанный перфекционизм, корреляция Пирсона, корреляционный анализ, эмпирическое исследование, психологическое исследование.

KIRISH

Ma'qullanish motivatsiyasi – shaxsning o'z xatti-harakatlari va qarorlarini boshqalar tomonidan tasdiqlanishi hamda ijobiy baholanishiga bog'liq holda shakllantirish tendensiyasi bo'lib, u shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va o'z-o'zini qadrlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mukammallikka intilish, ya'ni benuqson natijaga erishishga qaratilgan barqaror intilish, ko'pincha aynan ushbu ehtiyoj bilan uzviy bog'liq holda namoyon



bo'ladi. Chunki yuqori standartlarga erishish ko'plab shaxslar tomonidan boshqalarning tasdig'i va e'tirofini qozonishning muhim vositasi sifatida idrok etiladi.

Tadqiqotning maqsadi – mukammallikka intilish darajasi bilan ma'qullanish motivatsiyasi darajasi o'rtasida statistik bog'liqlik mavjudligini aniqlash hamda ushbu bog'liqlikning kuchini miqdoriy jihatdan baholashdan iborat. Tadqiqot 1052 nafar respondent ishtirokida to'plangan keng ko'lamli empirik ma'lumotlar asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- ikki o'zgaruvchining tavsifiy statistik ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ular o'rtasidagi bog'liqlikning yo'nalishi va kuchini Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida hisoblash;
- olingan natijalarni ijtimoiy taqozo etilgan perfektsionizm nazariyasi kontekstida sharhlash;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot gipotezasiga ko'ra, mukammallikka intilish darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda ma'qullanish motivatsiyasi darajasi ham nisbatan yuqori bo'ladi, ya'ni ushbu ikki o'zgaruvchi o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli musbat bog'liqlik mavjud.

Ma'qullanish motivatsiyasining haddan tashqari kuchayishi shaxsning o'z qadriyatlari va manfaatlariga zid bo'lgan qarorlarni qabul qilishiga, shuningdek, boshqalarni ranjitishdan qo'rqib, o'z fikrini erkin ifoda eta olmasligiga olib kelishi mumkin. Natijada uzoq muddat davomida ichki qoniqmaslik, hissiy zo'riqish va emotsional bo'shliq hissi yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar sharoitida boshqalarning tasdig'ini qo'lga kiritish, xususan, "layk"lar va ijobiy izohlar orqali ijtimoiy e'tirofga erishish tobora osonlashib, ayni paytda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli ma'qullanish motivatsiyasi va mukammallikka intilish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish bugungi kun psixologiyasi uchun dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Kasbiy faoliyatda ham rahbariyat yoki hamkasblar tomonidan ma'qullanishga bo'lgan ortiqcha ehtiyoj xodimlarning mustaqil tashabbus ko'rsatishiga, tanqidiy fikrlashi va innovatsion yechimlarni ilgari surishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu esa tashkilot faoliyati samaradorligiga bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'qullanish motivatsiyasi tushunchasi ijtimoiy psixologiyada shaxsning o'zini ijtimoiy jihatdan maqbul va ijobiy baholanishga loyiq tarzda namoyon etishga bo'lgan barqaror ehtiyoji sifatida tavsiflanadi. Ushbu konstrukt ko'pincha ijtimoiy taqozo etilgan perfektsionizm bilan nazariy jihatdan chambarchas bog'liq bo'lib, har ikkala hodisa ham shaxsning o'z-o'zini qadrlashini tashqi baholash manbalari, ya'ni boshqalarning fikri va munosabatlariga bog'lab qo'yishi bilan tavsiflanadi.

Hewitt va Flett tomonidan ishlab chiqilgan ko'p o'lchovli perfektsionizm modeliga ko'ra, ijtimoiy taqozo etilgan perfektsionizmga ega bo'lgan shaxslar atrofdagilar ulardan doimo mukammallik kutadi, degan ishonchga ega bo'ladilar va faqat ushbu kutilmalarni qondirish orqaligina o'zlarini qadrli hamda muvaffaqiyatli deb his qiladilar. Mazkur psixologik mexanizm ma'qullanish motivatsiyasining asosiy negizini tashkil etadi. Chunki har ikkala holatda ham shaxsning o'ziga nisbatan munosabati tashqi baholovchi omillarga kuchli darajada bog'liq bo'lib qoladi.

Flettning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, ma'qullanishga kuchli ehtiyoj sezuvchi shaxslar ko'pincha o'zlarining haqiqiy fikrlari, his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini bostirib, boshqalarning kutishlariga mos keladigan xatti-harakatlarni namoyon etishga intiladilar. Bunday holat vaqt o'tishi bilan "soxta men" (false self) fenomenining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu psixologik holat, ayniqsa, ijtimoiy taqozo etilgan perfektsionizm darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda keng uchraydi.

Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar ma'qullanishga bo'lgan ehtiyojning barcha ko'rinishlari ham salbiy emasligini ko'rsatadi. Sog'lom ijtimoiy aloqadorlik, boshqalar tomonidan qabul qilinish va tegishlilik hissi insonning asosiy psixologik ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Muammo ushbu ehtiyoj me'yorida ortib ketib, shaxsning o'z-o'zini qadrlashi to'liq ravishda tashqi baholarga bog'liq bo'lib qolgandagina yuzaga keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda jami 1052 nafar respondent ishtirok etdi. Shundan 530 nafari ayollar, 522 nafari erkaklar bo'lib, ular besh yosh davri hamda besh xil kasb sohasi - psixolog, pedagog, dasturchi, hamshira va sotuvchi vakillaridan iborat edi.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida "Mukammallikka intilish" (0-15 ball) hamda "Ma'qullanish motivatsiyasi darajasi" (0-30 ball) test-so'rovnomalardan foydalanildi. Tadqiqot instrumenti respondentlarning demografik



ma'lumotlari bilan bir qatorda mazkur psixologik ko'rsatkichlarni baholashga mo'ljallangan savollarni ham o'z ichiga olgan yagona diagnostik batareya shaklida tashkil etildi.

Yig'ilgan empirik ma'lumotlar statistik dastur yordamida qayta ishlandi. Dastlab tavsifiy statistik ko'rsatkichlar (o'rtacha qiymat va standart og'ish) hisoblandi. So'ngra mukammallikka intilish va ma'qullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti (Pearson's r) yordamida aniqlandi. Aniqlangan korrelyatsiyaning statistik ahamiyatligi t-taqsimot asosida tekshirildi (erkinlik darajasi = 1050; $p < 0,05$). Tadqiqot etik me'yorlarga muvofiq tashkil etildi: barcha respondentlardan oldindan ma'lumotlantirilgan rozilik olindi hamda olingan ma'lumotlar anonimlik va maxfiylik tamoyillariga rioya etilgan holda qayta ishlanildi.

Tavsifiy statistik tahlil natijalari respondentlarda mukammallikka intilish ko'rsatkichining o'rtacha qiymati $7,49 \pm 2,51$ ball, ma'qullanish motivatsiyasi ko'rsatkichining o'rtacha qiymati esa $14,99 \pm 5,03$ ball ekanligini ko'rsatdi. Har ikkala ko'rsatkich ham qo'llanilgan diagnostik shkalaning o'rta darajasiga mos keladi. Bu natijalar tadqiqot tanlanmasida mazkur psixologik xususiyatlarning o'rtacha darajada namoyon bo'lganligini hamda keyingi korrelyatsion tahlillarni amalga oshirish uchun yetarli statistik variativlik mavjudligini ko'rsatadi.

1-jadval: Tavsifiy statistika

Ko'rsatkich	O'rtacha (M)	Standart chetlanish (SD)
Mukammallikka intilish darajasi	7.49	2.51
Maqullanish motivatsiyasi darajasi	14.99	5.03

2-jadval: Korrelyatsion tahlil natijalari

N	Pirson r	p qiymati	R ² (%)
1052	0.237	$p < 0,001$	5.6%

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, mukammallikka intilish darajasi bilan ma'qullanish motivatsiyasi o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli, musbat, ammo kuchsiz darajadagi bog'liqlik aniqlandi ($r = 0,237$; $p < 0,001$). Determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2 = 5,6\%$) ma'qullanish motivatsiyasi umumiy variativligining taxminan 6 foizi mukammallikka intilish darajasi bilan izohlanishini ko'rsatadi.

Kohen mezonlariga ko'ra, $r = 0,237$ qiymati kuchsiz korrelyatsiya diapazoniga kiradi. Mazkur ko'rsatkich tadqiqotda aniqlangan o'n korrelyatsion bog'liqlik ichida eng pastlaridan biri bo'lsa-da, tanlanma hajmining katta ($N = 1052$) ekanligi sababli statistik jihatdan yuqori ishonchlilikka ega bo'lib qolmoqda.

Tanlanmaning katta hajmi olingan natijalarning ishonchligini oshiradi. Shu bilan birga, bog'liqlikning kuchsiz darajada ekanligi ma'qullanish motivatsiyasi asosan boshqa psixologik omillar, jumladan bolalik davridagi bog'lanish uslubi, ijtimoiy tajriba hamda shaxsning umumiy o'z-o'zini qadrlash darajasi bilan ko'proq izohlanishini anglatadi.

Olingan natijalar mukammallikka intilish va ma'qullanish motivatsiyasi o'rtasida qisman umumiy psixologik zamin mavjudligini tasdiqlaydi. Ya'ni, yuqori standartlarga intiluvchi shaxslar ko'pincha ushbu standartlarni boshqalarning tasdig'i va ijobiy bahosiga erishish vositasi sifatida ham qabul qiladilar. Biroq aniqlangan korrelyatsiyaning kuchsizligi mukammallikka intilishning asosiy manbai har doim ham tashqi tasdiq emasligini ko'rsatadi. Ko'plab shaxslar ichki motivatsiya asosida ham yuqori natijalarga erishishga intilishlari mumkin.

Mazkur natija ijtimoiy taqozo etilgan perfektsionizm modeli bilan qisman mos keladi. Agar mukammallikka intilish to'liq ijtimoiy taqozo etilgan xususiyatga ega bo'lganida, korrelyatsiya ancha yuqori bo'lishi kutilgan bo'lardi. Kuzatilgan kuchsiz bog'liqlik esa tadqiqotda qo'llanilgan umumiy mukammallikka intilish ko'rsatkichi o'ziga yo'naltirilgan (self-oriented) va ijtimoiy taqozo etilgan (socially prescribed) perfektsionizm komponentlarining birgalikdagi ifodasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shuningdek, natijalar ma'qullanish motivatsiyasini faqat mukammallikka intilish orqali izohlash yetarli emasligini ko'rsatadi. Mazkur hodisaning shakllanishida bolalik davridagi bog'lanish tajribasi, ota-onalarning shartli yoki shartsiz muhabbat ko'rsatish uslubi kabi omillar muhim rol o'ynashi mumkin.

Tanlanmaning kasbiy va yosh jihatdan xilma-xilligi natijalarni nisbatan kengroq populyatsiyaga umumlash-tirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mijozlar yoki jamoatchilik bilan doimiy muloqot qiladigan kasb egalari, xususan sotuvchilar va hamshiralarda ma'qullanish motivatsiyasi kasbiy faoliyat talablari bilan bog'liq ravishda kuchliroq namoyon bo'lishi ehtimolini ham inobatga olish zarur.

Tadqiqotning ko'ndalang (kesim) dizaynda amalga oshirilganligi sababli sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash imkoniyati cheklangan. Shu bois kelgusida longitudinal tadqiqotlar o'tkazish hamda bolalikdagi bog'lanish uslubining vositachilik rolini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Individual psixologik maslahat jarayonida mutaxassislariga mijozlarda o'z qadr-qimmatini tashqi tasdiqdan mustaqil ravishda shakllantirishga qaratilgan kognitiv-xulqiy usullardan, jumladan o'z-o'ziga hamdardlik (self-compassion) mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.



Ta'lim va kasbiy muassasalarda shaxslarning o'z fikrini erkin bayon etishi hamda mustaqil qaror qabul qilishini qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhitni yaratish ma'qullanish motivatsiyasining me'yoridan ortiq kuchayishining oldini olishga xizmat qiladi.

Oilaviy tarbiya jarayonida ota-onalarga farzandlariga shartsiz muhabbat va doimiy qo'llab-quvvatlashni namoyon etish, ya'ni bolaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligidan qat'i nazar unga bo'lgan munosabatni o'zgartirmaslik bo'yicha psixologik-ma'rifiy dasturlarni joriy etish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari mukammallikka intilish darajasi bilan ma'qullanish motivatsiyasi o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli, biroq nisbatan kuchsiz musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi ($r = 0,237$; $p < 0,001$; $R^2 = 5,6\%$).

Mazkur natija ushbu ikki psixologik hodisa qisman umumiy nazariy va psixologik zaminga ega bo'lsa-da, ularning har biri mustaqil ravishda turli omillar ta'sirida shakllanishini tasdiqlaydi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda mukammallikka intilishning o'ziga yo'naltirilgan (self-oriented) hamda ijtimoiy taqozo etilgan (socially prescribed) komponentlarini alohida o'lchash orqali mazkur bog'liqlikni yanada chuqurroq tahlil qilish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari mukammallikka intilish va ma'qullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni O'zbekiston sharoitida empirik jihatdan tasdiqlab, ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar hamda amaliy psixologik faoliyatni rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hewitt P. L., & Flett G. L. Perfectionism in the self and social contexts: Conceptualization, assessment, and association with psychopathology. *Journal of Personality and Social Psychology*, 60(3), 1991. p 456-470.
2. Flett G. L., & Hewitt P. L. Perfectionism: Theory, research, and treatment. American Psychological Association. 2002.
3. Stoeber J., & Otto K. Positive conceptions of perfectionism: Approaches, evidence, challenges. *Personality and Social Psychology Review*, 10(4), 2006. p 295-319.
4. Deci E. L., & Ryan R. M. The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. *Psychological Inquiry*, 11(4), 2000. p 227-268.
5. Yuldasheva N. The impostor phenomenon and the influence of social media: A secondary analysis among Uzbek youth. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 48, 2026. P 50-57.
6. Martin H. J. A revised measure of approval motivation and its relationship to social desirability. *Journal of Personality Assessment*, 48(5), 1984. p 508-519.
7. Crowne D. P., & Marlowe D. A new scale of social desirability independent of psychopathology. *Journal of Consulting Psychology*, 24(4), 1960. p 349-354.
8. Hill A. P., Hall H. K., Appleton P. R., & Kozub S. A. Perfectionism and burnout in junior elite soccer players: The mediating influence of unconditional self-acceptance. *Psychology of Sport and Exercise*, 9(5), 2008. p 630-644.
9. Mills J. S., & Blankstein K. R. Perfectionism, intrinsic vs extrinsic motivation, and motivated strategies for learning: A multidimensional analysis of university students. *Personality and Individual Differences*, 29(6), 2000. p 1191-1204.
10. Crocker J., Luhtanen R. K., Cooper M. L., & Bouvrette A. Contingencies of self-worth in college students: Theory and measurement. *Journal of Personality and Social Psychology*, 85(5), 2003. p 894-908.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.